



SANOAT KORXONALARIDA RESURSLAR SALOHIYATINI IQTISODIY
BAHOLASH ASOSLARI

doi: doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a60

*Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi -
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti, PhD*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini iqtisodiy baholashning nazariy asoslari keltirilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini baholash usullari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: resurslar salohiyati, sanoat korxonalar, resurslar, moddiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, innovatsion resurslar, asosiy fondlar, aylanma fondlar.

ОСНОВЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ РЕСУРСНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

*Мадрахимова Гуласал Рузимбаевна -
Ташкентский государственный экономический университет
доцент университета, PhD*

Аннотация. В данной статье представлены теоретические основы экономической оценки ресурсного потенциала промышленных предприятий Узбекистана. Также широко освещаются методы оценки ресурсного потенциала на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: ресурсный потенциал, промышленные предприятия, ресурсы, материальные ресурсы, трудовые ресурсы, финансовые ресурсы, инновационные ресурсы, основные средства, оборотные средства.

**FUNDAMENTALS OF ECONOMIC ASSESSMENT OF RESOURCE CAPACITY
IN INDUSTRIAL ENTERPRISES**

*Madrakhimova Gulasal Ruzimboy kizi -
Tashkent State economy
University Associate Professor, PhD*

Annotation. This article provides the theoretical basis for the economic assessment of the potential of resources in industrial enterprises of Uzbekistan. Also, methods for assessing the potential of resources in industrial enterprises are widely covered.

Keywords: resource potential, industrial enterprises, resources, material resources, labor resources, financial resources, innovative resources, basic funds, revolving funds.

Kirish. O'zbekistonda so'nggi yillarda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish masalalariga keng e'tibor qaratilyapti, jumladan, to'qimachilik tarmog'i faoliyatini takomillashtirish markaziy o'rinda turadi. Chunki to'qimachilik sanoatining respublika YaIMdag'i ulushi 4,8 foizni tashkil etib, sanoat mahsulotlarining 25 foizi, ishlab chiqarish asosiy fondlarining 13 foizi ushbu tarmoqqa to'g'ri keladi va eng asosiysi, sanoatda band xodimlarining 32 foizi aynan shu tarmoqda faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida juda ko'plab iqtisodiy islohotlar amalga oshirilyapti. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonning 3-bandiga ko'ra, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olining bo'lib, ushbu vazifalar sohaning istiqbolli

rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda sanoat tarmog'i, xususan, to'qimachilik tarmog'i faoliyatini baholashni takomillashtirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.
I.A.Kinash [3] va A.S.Bessonov [4] resurs deganda, iqtisodiy boyliklarni takror ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan omillar majmuasini tushunishni taklif qiladilar, iqtisodiy resurslar deganda esa ular tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun ishlataladigan tabiiy, inson va moddiy resurslarning to'liq majmuasini tushunadilar.

A.Sudakovning [5] mualliflik konsepsiyasida resurslar doim potensial ishlab chiqarish omillari bo'lib hisoblanishi, ya'ni bu ishlab chiqarishga jalb etilgan tabiiy obyektlar ekanligi ko'rsatiladi.

I.V.Andronova, E.L.Chiyevskaya [6] tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "resurslarning samaradorligi" keng ma'noda imkoniyatlar va resurslarni tejash uchun (material, moliyaviy resurs, mehnat va hok-

zo) minimal harakatlar bilan maksimal natijaga erishishdir.

S.M.Kulishning fikriga ko'ra, korxonaning umumiy resurslaridan foydalanish samaradorligini umumiy baholash uchun aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichidan foydalanish mumkin. Ushbu ko'rsatkich foyda olish jarayonida korxona aktivlaridan foydalanish darajasini tavsiflaydi va har bir aktiv turining uning shakllanishiga qo'shgan hissasini baholaydi. Biroq korxonaning resurs salohiyatini baholash jarayonida uni umumiy tahlil ko'rsatkichlari bilan cheklab bo'lmaydi [7].

V.V.Kovalev [8] resurslarning butun yig'indisini uch guruhga ajratadi: (a) moddiy-tehnik baza (texnologik jarayonning mohiyati tufayli uzoq muddatli qayta ishslash), joriy aktivlar (texnologik jarayonning bajarilishini ta'minlaydigan aktivlar) va mehnat resurslari. Aynan mana shu uch turdagi resurslar ishlab chiqarish va texnologik jarayonda birlashib, belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi, deb hisoblanadi.

T.B.Berdnikovaning fikricha, ishlab chiqarish salohiyati har xil turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonaning turli ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtirgan toifa sifatida tushuniladi [9].

Nguyen Thi Thu hang korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini quyidagicha belgilaydi: "...korxonada mavjud bo'lgan texnik, mehnat va moddiy-energetika resurslaridan foydalangan holda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mavjud imkoniyatlar" [10].

T.I.Nikolayeva, T.I.Uryashyevaning [11] fikriga ko'ra, resurs salohiyati deganda, xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror raqobatdosh ustunliklarni yaratish uchun ma'lum bir tarkib va tizimlar soni bilan ta'minlangan qobiliyatlar to'plamini shakllantirish tushuniladi. Boshqa mualliflarning fikricha esa korxonaning resurs salohiyati deganda, moddiy, energetika, axborot vositalari, shuningdek, moddiy tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanadigan ishchilarning o'zları bilan bog'liq resurslar tizimi tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini baholash bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlar, statistik ma'lumotlarni o'rGANISH va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Sanoat korxonalariga zamonaviy o'zgarishlarning kirib kelishi natijasida korxona boshqaruvi falsafasining o'zi yangi sharoitlar va vaziyatlarda o'zgardi, uning asosiy maqsadlarini iste'molchilar talabiga yo'naltirish, o'zgarishli ilmiy-tehnik innovatsiyalar va bozor siyosatini olib borish tez o'zgarishlarga reaksiya sifatidagi xatti-harakat hisoblanadi. Tashqi muhit, yangilik istagi va

shu kabilar uning tarkibiga kiruvchi faktorlardir. Biroq sanoat korxonalarining strategik resurs salohiyatini baholashning yangi sharoitida tahlil qilish jarayoni faqat so'nggi yillarda mamlakatimiz olimlari va amaliyotchilarining diqqat markaziga aylandi. Shuning uchun u sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini baholashni muntazam nazorat qilib borish shakllanish bosqichida desa ham bo'ladi.

Bu jarayonda beqaror terminologiya, usullar, modellarning umumiy qabul qilingan tasnifining yo'qligi kabi muammolar yuzaga keladi. Shu bilan birga aytib o'tish kerakki, resurslarni rejalashtirish (RP), resurslardan foydalanishda tejamkorlikni oshirish, strategik tahlil va rejalashtirish o'n yildan ko'proq vaqt davomida sanoati rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy fanning eng muhim yo'nalishlari bo'lib kelgan va G'arbning barcha muvaffaqiyatli kompaniyalari tomonidan keng qo'llanilmoqda. Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini baholash korxonalar faoliyatini strategik tahlil qilish va rejalashtirishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ya'ni korxonalarining raqobatbardoshlilagini oshirish, kelgusi faoliyatini strategik tahlil qilish va rejalashtirishda dastlab korxonaning resurslari salohiyatini iqtisodiy baholashdan boshlanadi. Korxonalar resurslar salohiyatini iqtisodiy baholashda "korxona", "resurslar", "korxona resurslari" va "korxona resurslari salohiyati" kabi tushunchalarni ta'riflash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Korxona – salohiyat xaridorlarning ehtiyojlarini va uning strategik maqsadlariga muvofiq tovar va xizmatlar to'plamini ishlab chiqarish uchun foydalilanidigan moddiy va nomoddiy resurslar tizimi. Korxonalar faoliyatini strategik rejalashtirishda ishlab chiqish resurslar tarkibini, ulardan alohida turlar bo'yicha foydalanish holatini tahlil qilish, agar kerak bo'lsa, qo'shimcha resurslarni jalb qilishning salohiyat imkoniyatlarini aniqlashga asoslangan.

Resurslar – korxona rivojlanishining u yoki bu bosqichida mavjud bo'lgan resurs salohiyatining asosiy elementlari. Shu sababli korxona o'zining global va mahalliy maqsadlariga erishish uchun mavjud resurslardan ularning turlari bo'yicha haqiqiy foydalanishni tahlil qilish bilan birga, uning resurs salohiyatining belgilangan maqsadlarga muvofiqligini aniqlash kerak. Umuman olganda, korxona resurslari deganda, korxonada mavjud bo'lgan mablag'lar, zaxiralar, manbalar, vositalar va mehnat obyektlari tushuniladi va ularni safarbar qilish va faollashtirish, shuningdek, maqsadlariga erishish uchun foydalanish mumkin. Korxona uchun yetarli resurslarga ega bo'lish, belgilangan maqsadlarga muvofiq uning rivojlanishi va normal ishlashi uchun muayyan sharoitlarda zarur imkoniyatlarga ega bo'lishni anglatadi.

Resurs salohiyatining dastlabki tushunchasi "resurslar" tushunchasiga to'g'ri keladi. Ushbu bosqichda salohiyatning ta'rifi faqat uning moddiy va

mehnat resurslarining mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati sifatida shakllanishini aks ettiradi. Ushbu bosqichda korxonada mavjud bo'lgan resurslar, ularning o'sish dinamikasi, sifati va shu kabilarni batatsil o'rganish mumkin. Ammo bularning barchasi bizni haqiqiy resurs salohiyatini aniqlashga yaqinlashtirmaydi, chunki mayjud resurslarning hammasi ham ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinishi mumkin emas. Ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda ishtirok etadigan resurslar resurs salohiyati tarkibiy qismlarining yangi sifatiga ega bo'ladi. Ular sifat va miqdoriy jihatdan resurslar bilan mos kelmaydi. Ushbu bosqichda korxonalarining mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyatini belgilovchi bevosita omillarni shakllantiradi. Ishlab chiqarish omillarining tarkibi, ya'ni resurs salohiyatining tarkibiy qismlari yanada farqlanadi. Shu bilan birga,

kadrlar, ishlab chiqarish va texnologik, ilmiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, innovatsion va boshqa salohiyat turlariga ajratiladi. Resurs salohiyatining qiymati nafaqat tarkibiy resurslarning miqdoriy xususiyatlari, balki ularning bog'lanish tabiatini bilan ham belgilanadi. Resurs komponentlarini ulash usuli korxonaning resurs salohiyatini ham shakllantiradi. Ularning o'zaro ta'siri natijasida yangi sifat belgilarini paydo bo'ladi. 1-rasmda korxonaning asosiy tarkibiy qismlari bilan o'zaro ta'sirida umumiy resurs salohiyati ko'rsatilgan, bu yangi parametrlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, xususan, innovatsion salohiyat bilan xarakterlidir. Ikkinchisi butun salohiyatning yadrosini tashkil etuvchi o'z innovatsion faoliyat uchun, korxona uchun mavjud imkoniyatlarni ifodalaydi.



1-rasm. Korxonaning resurslar salohiyati

Manba: o'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Resurs salohiyatini aniqlashning yakuniy bosqichida korxonaning mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantirish jarayoniga qayta tiklash va to'plash jarayoni qo'shiladi. Gap korxonaning iste'mol qilingan resurslarni qoplash, xodimlarning mehnat qobiliyatini ko'paytirish qobiliyati, shu jumladan, xodimlarning sog'lig'i, dam olish uchun sharoit yaratish, shuningdek, imkoniyatlar mavjudligi haqida bormoqda. Daromad, investitsiya faoliyati, kasbiy faoliyat orqali resurs salohiyatini oshirish, rivojlantirish va qayta tayyorlash mumkin. Ushbu bosqichda resurs salohiyati harakatining natijasi korxonalarining sifat va miqdoriy yangilangan resurslari (xodimlar, moddiy, ekologik, axborot) hisoblanadi. Darhaqiqat, korxonalarining resurs salohiyati mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirish, ulardan foydalanish va o'zgartirish jarayoni sifatida barcha tanlangan bosqichlarda bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, bu ularning organik birligini va bir sifatdan ikkinchi-siga uzluksiz o'tishini anglatadi.

Iyerarxiyaning istalgan darajasida korxona resurslaridan haqiqiy foydalanishni tahlil qilish ularni turlari bo'yicha to'ldirishning quyidagi eng keng tarqalgan usuli asosida amalga oshirilishi kerak:


Iqtisodiy tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'r-tasida bozorda raqobatning zamonaviy sharoitida ularning resurslar salohiyatini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonaning resurs salohiyati murakkab, ko'p qirrali, ko'p darajali toifadir, shuning uchun uning ishlash qonuniylatlari (shakllanishi, ishlatilishi va rivojlanishi) faqat keng qamrovli tizimli tadqiqotlar asosida ochib berilishi mumkin. Ushbu holat korxonaning resurs salohiyatining terminologik bazasini aniqlashtirish, uni baholash va samarali ishlashga yondashuvlarni asoslash zarurligini belgilaydi. Bugungi kunda korxonaning resurs salohiyatining aniq ta'rifi yo'q. Turli olimlar va mualiflar ushbu konsepsiyanı boshqacha talqin qilishadi. Biroq ularning barchasi umumiyl ma'noda birlashtirilgan bo'lib, uning ostida korxonaning uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy rivojlanishini belgilaydigan turli xil resurslar to'plami mavjud.

Korxonaning resurs salohiyati – ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv xususiyatlaridan biri, ya’ni nafaqat resurslarning salohiyat imkoniyatlari, balki korxonaning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ko’paytirish jarayonlarini amalga oshirish va daromad olish qobiliyatining umumiyligi. Ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlari da ishlab chiqarish jarayonining alohida bosqichlari ketma-ketligiga asoslangan resurs salohiyatining

SANOAT IQTISODIYOTI

o'zaro bog'liq tushunchalari mavjud: resurslar (ishlab chiqaruvchi kuchlar) – ishlab chiqarish omillari – ularni bog'lash usuli – ishlab chiqarish jarayoni (ishlab chiqarish iste'moli) – mehnat jarayoni – mehnat jarayonining natijalari - iste'mol ishlab chi-

qarish – yangi resurslar va hokazo. Ishlab chiqarish jarayonining bosqichlarida korxonaning resurs salohiyatini iqtisodiy baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. Sanoat korxonalarida resurslaridan haqiqiy foydalanishning tahlil mezonlari

Manba: o'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Korxonalarning resurs salohiyati mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish salohiyatini shakkantirish, ulardan foydalanish va o'zgartirish jarayoni sifatida barcha tanlangan bosqichlarda bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, bu ularning organik birligini va bir sifatdan ikkinchisiga uzlusiz o'tishini anglatadi. Hozirgi vaqtida tizimning resurs salohiyatini baholashning ko'plab boshqa usullari va yonda-shuvlari mavjud, ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu konsepsiyaning aniq ta'rifi hali ishlab chiqilmagan. Ilmiy adapiyotlarda topilgan korxonaning resurs salohiyati tushunchalarini tahlil qilish quyidagi taxminlarga asoslanadi: aksariyat hollarda bu tushuncha "imkoniyat", "qobiliyat" toifalari orqali oshib beriladi, bu esa korxonaning resurs salohiyati haqida juda mavhum tasavvur beradi va buni amalga oshiradi. Uning mohiyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon bermaydi; asosan, faqat resurslarning yig'indisi yoki ishlab chiqarishning ishlab chiqarish imkoniyatlari ko'pincha ushbu konsepsiyanı oshkor qilish iqtisodiy tizimning mavjudligini hisobga olmagan holda beriladi, bu esa resurs salohiyatini baholashni qiyinlashtiradi.

Korxonaning resurs salohiyati – uning resurslarining umumiyligini va ma'lum vaqt ichida ular-dan foydalanishning maksimal natijasini aks etti-ruvchi tizimli yondashuv. Shunga ko'ra, korxonaning resurs salohiyati – ma'lum bir vaqtida maksimal iqtisodiy samarani olish imkoniyatini ta'minlay-digan korxonaning barcha resurslarining yig'indisi. Korxonaning resurs salohiyatining ikki turi mavjud:

faol va nofaol. Korxonaning faol salohiyati – resurslar to'plamini o'zgartirishdan olingan mablag'lar (imtiyozlar) miqdori, nofaol salohiyat esa resurslar to'plamiga ega bo'lishdan kelib chiqadi, ulardan daramod muqobil ravishda olinishi mumkin.

Shunday qilib, mualliflarning asosiy tushunchalarini o'rganib chiqib, biz korxonaning resurs salohiyati tushunchasini ikki nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin, deb hisoblaymiz:

bir nuqtayi nazardan, miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo'lgan moddiy va intellektual resurslar to'plami;

boshqa nuqtayi nazardan, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va boshqarish qobiliyatlari va ko'nikmalari.

Korxonalarning resurs salohiyati uning raqobatdagи muvaffaqiyatining ajralmas omilidir. Korxonaning resurs salohiyatini muntazam baholab borish korxonalarning kelgusi faoliyatini rejalashtirish va rivojlantirishda muhim asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Korxonaning resurs salohiyatining holatini tahlil qilish, undan foydalanishning samarali usullarini topish uchun uning imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, korxona resurslarining ayrim turlarining strategik maqsadlariga muvofiqligi darajasini aniqlashning tegishli mezonlarini ishlab chiqish zarur. Basharti ana shunday - mezonlar mavjud bo'lmasa, korxonada resurslardan omilkorlik bilan foydalanish borasida amalga oshirilan ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi ta'rif taklif etiladi: "Sanoat korxonalarida resurslar salohiyati deganda, ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv xususiyatlari dan biri, ya'ni nafaqat resurslarning salohiyat imkoniyatlari, balki korxonaning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ko'paytirish jarayonlari amalga oshirish va daromad olish qobiliyatining umumiyligi tushuniladi". Korxonalarning resurslari potensialining mohiyatini tushunishga taklif qilin-gan yondashuvga muvofiq, uning asosiy xususiyatlarini yana bir bor ta'kidlash va tizimlashtirish kerak.

Bizning fikrimizcha, birinchi navbatda, bunday potensial quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- moddiy resurslari hajmi va sifati;
- korxonaning asosiy vositalarining mayjudligi va holati – ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan mehnat vositalari;
- malakali xodimlarning mavjudligi va ishchilarning mehnat natijalariga qiziqishi;
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish samaradorligi.

Shunday qilib, biz ishlab chiqarish potensialining elementlarini o'z ichiga olamiz. Bunga inson resurslari salohiyati, moliyaviy-iqtisodiy salohiyat, ilmiy-texnik salohiyat, ishlab chiqarish va texnologik salohiyat hamda innovatsion salohiyat kiradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining konsepsiysi.
https://static.norma.uz/official_texts/Концепция-Развития-Узбекистана-UZB.pdf
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi
3. Кинаш И.А. Организация системы управления ресурсосбережением на предприятии. / Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. 2015. №11. С. 112-119.
4. Бессонов А.С. Технологии ресурсосбережения в строительстве и их применение на современном этапе. / Научные исследования и инновации. 2017. № 2. С. 18-24.
5. Судакова А. Бюджетное планирование и прогнозирование. Учебное пособие. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2019. – 308 с.
6. Андронова И.В., Чижевская Е.Л. Ресурсоэффективная стратегия развития: взаимодействие нефтяных корпораций и региона. // Нефтегазовое дело, 2006, № 2. https://en.wikipedia.org/wiki/Resource_efficiency
7. Kulish S.M. The impact of resource potential analysis on the strategic development of the enterprise. // KPJ. 2015. No. 2. <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanieanaliza-resursnogopo-potensiala-na-strategicheskoe-razvitierepredprivatiya>
8. Kovalev V.V. Moliyaviy tahlil: usullari va protseduralari. – M.: Moliya va statistika, 2002. – 560 b.
9. Бердникова Т.В. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2002. – 215 с.
10. Производственный потенциал полиграфических предприятий Nguyen thi thu Hang и эффективность его использования в рыночных условиях. Автор. дис. - как насчет этого?... канд. - как насчет этого? экономика. наук. – М., 2001. – 18 с.
11. Nikolayeva T.I., Uryashyeva T.I. Raqobat strategiyasini tanlash maqsadida savdo tashkilotining resurs salohiyatini tahlil qilishga yondashuvlarni ishlab chiqish. // Savdo-iqtisodiy jurnal.
12. Madrakhimova G.R Improving The Use of Investment in Improving The Efficiency of Light Industry Enterprises in Uzbekistan. // International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS 2019) ISSN:2348-6503. Volume 6, Issue 2 (April-June 2019). Impact Factor (5) GIF – 0.70. P. 32-35. <http://ijrmbs.com/vol6issue2/madrahimova.pdf>
13. Madraximova G.R. Mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning o'rni, ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari. // Biznes-Ekspert. – T., 2020. 2-son. 104-109-b. (08.00.00 № 3).
14. Madrakhimova G.R Analysis of the current status of the textile industry in the economy of Uzbekistan. // Economics and Innovative Technologies. Vol. 2020, No. 1, January-February, 1/2020 (08.00.00, №10). P. 1-9.
<https://uzjournals.edu.uz/ijtisodiyot/vol2020/iss1/3>



ТҮҚИМАЧИЛИК КОРХОНАЛАРИДА ТЕЖАМКОР ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ

**Яхъяева Инобат Каримовна -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
доценти, PhD**

doi doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a61

Аннотация. Ушбу иммий мақолада Ўзбекистонда түқимачилик корхоналарида тежамкор ишлаб чиқаришни ташкил этиши бўйича олиб борилётган ислоҳотлар ва уларнинг амалиёт жорий этиши йўллари кўрсатилган. Тежамкор ишлаб чиқаришни тушунишнинг фалсафий даражасидаги стратегик аҳамияти, корхонанинг тежамкор ишлаб чиқаришга ўйналтирилган янги қадриятлар тизимиға алоҳида эътибор қаратилган. Тежамкор ишлаб чиқаришни ташкил этишининг иқтисодий самараదорлигини ошириш йўллари ва түқимачилик соҳасини ривоҷлантириш борасидаги мавжуд муаммолар аниқланган ва уларни бартараф этиши йўллари бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калим сўзлар: түқимачилик саноати, ишлаб чиқариш, тежамкор ишлаб чиқариш, қайта ишлаб чиқариш, саноат тармоғи бошқарув самараదорлиги, табиий-климатик, территориал ва меҳнат ресурслари, корхона, ташкилот, рақобатлашган бозор, бошқарув механизми, ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш.